

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK 538.945**

Taxirova Saodat Nishadovnaning

**RELYATIVISTIK ZARRALARNING ELEKTR VA MAGNIT
MAYDONLARDAGI HARAKATI TADIIQIQI**

***Mutaxassislik:* 5A140201 - "Nazariy fizika"**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
dots. M.R. Jumayev**

Buxoro-2013y.

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. UMUMIY KO'RINISHDAGI RELYATIVISTIK DINAMIKA TENGLAMALARI.	
1.1. Elektromagnit maydondagi zaryad uchun lagranj funksiyasi.....	7
1.2. Relyativistik zarraning energiyasi va impulsi orasidagi bog'lanish.	11
1.3. Relyativistik dinamika tenglamasi.....	15
1.4. Relyativistik zarraning doimiy kuch ta'siridagi bir o'lchovli harakati.....	17
1.5. Relyativistik zarraning doimiy tormozlovshi kuch ta'siridagi harakati.....	20
II BOB. ELEKTROMAGNIT MAYDONDAGI RELYATIVISTIK ZARYADNING HARAKAT TENGLAMASI	
2.1. Elektromagnit maydondagi zaryadning harakat tenglamasi.....	28
2.2. Relyativistik mass-spektrograf.....	31
2.3. Larmor pretsessiyasi.....	33
2.4. Relyativistik zarralarning siklotronida erishadigan eng katta energiyasi.....	36
2.5. Relyativistik zarraning bir jinsli va doimiy magnit maydonidagi harakati.....	37
III BOB. HARAKATLANUVCHI MUHITLARDAGI RELYATIVISTIK ZARRALAR DINAMIKASI	
3.1. Relyativistik fotoelektronlarning uchish uzoqligi.....	41
3.2. Tekis harakatlanuvchi zaryad maydoni	49
3.3. Harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasi.....	53
3.4. Olingan natijalarning amaliy qo'llanishi.....	54
XOTIMA.....	57
ADABIYOTLAR.....	58

KIRISH.

“Yoshlarga milliy vatanparvarlik ruhida ta’lim-tarbiya berish bugungi kunning jiddiy vazifalaridan hisoblanadi”

I.A.Karimov

Barkamol avlod tarbiyalash insoniyatning eng yaqin orzusi bo’lib kelgan. Barcha mamlakatlar, millatlar shunga intilgan. Bizning vatanimizda ham bu borada ancha samarali ishlar bajarilmoqda. Bunga yaqqol misol qilib, 1997-yilda qabul qilingan (yangi tahriri) “Ta’lim to’g’risida” gi qonun va “Kadrlar tayorlash bo’yicha milliy dastur” ini aytish mumkin.

Mustakillik yillarida jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida bulgani kabi ta’lim tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi" va "Ta’lim tugrisida"gi Qonunlarda O`zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko’tarish va ta’limning uzluksizligini ta’minlashning asosiy maksadlari va shart - sharoitlari belgilab berildi. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida Prezidentimiz

I. A. Karimov ta’kidlab o’tganlaridek, "Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustakil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Biz o`zining qadriyatini angelaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bulgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo`lamiz ". Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, yangi sharoitda raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalash, ularni hayotga ishlab - chiqarish sohalariga tayyorlash ta’lim tizimining bosh vazifasi bo’lib qoladi. Keng qamrovli istiqlolga yo`nalgan bu sharaflı va mas`uliyatli vazifani amalga oshirishda etakchi kuch - o`q ituvchi, ustozlar hisoblanadi.

Keyingi yillarda Respublikamizda har bir sohada bo`lgani kabi ta’lim-tarbiya sohasida dam juda ko`plab islohotlar amalga oshirildi. "Ta’lim to’g’risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturlari" hamda davlat ta’lim standartlari singari me`yoriy hujjatlar va nizomlarning ishlab chiqilganligi va

ularning ko'pchiligi hozirgi kunda amalga oshirilayotganligi hammamizga ma'lum. Ta'lim tizimining yangilanganligi, o'qitish mazmunini yangilashga, u esa o'z navbatida ta'lim mazmunini va uni belgilovchi hujjatlar (o'quv rejasi, o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar)ning yangilanishiga olib keldi. Bu yangilanishlar o'z navbatida tabiiyki, o'qitish jarayonini rejalashtirish, dars mashg'ulotini loyihalashtirishga yangicha yondashishni, o'quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilishni talab qiladi.

Bizga ma'lumki, hozirgi zamon tezlatgichlarida relyativistik zarralarning elektr va magnit maydonlaridagi harakatlari xususiyatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun magistrlik ishining mavzusi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Magistrlik ishi kirish, uch bob va xotima qismlaridan iborat.

Magistrlik ishining birinchi bobi **umumiy ko'rinishdagi relyativistik dinamika tenglamalari** tahlili hamda uning bir o'lchovli va ikki o'lchovli harakati tahliliga bag'ishlangan.

Bu bobda dastlab relyativistik zarralarning tormozlanish vaqti va tormozlanish yo'li ifodalari zarrachaning boshlang'ish energiyasi va tormozlanuvshi kuch orqali keltirib chiqarilgan. so'ngra esa fotoelektronlarning elektr maydoniga tik yo'nalishda uchib kirgan holi uchun ularning harakat qonunlari keltirib chiqarilgan. Olingan natijalar fotoelektronlarning tezliklariga bog'liq holda odatdagi norelativistik zarralarga nisbatan bir necha million marta katt bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Magistrlik ishining ikkinchi bobi **elektromagnit maydondagi relyativistik zaryadning harakat tenglamasi** tahliliga bag'ishlangan. Bu bobda dastlab relyativistik zarraning Lorens kuchi ta'sirida bu kuch tezlikka perpendikulyar bo'lgani sababli, uning tezlik miqdori o'zgarmasdan qolib, uning harakati aylanma harakatdan iborat bo'lishi ko'rsatilgan.

So'ngra relyativistik zarraning uning tezligiga tik bo'lgan Lorens kuchi ta'siridagi markazga intilma tezlanishi tahlil etilgan va bu tezlanishning eng katta qiymati keltirib chiqarilgan.

Bobning keyingi bo'limlari relyativistik zarraning aylanish radiusi hamda aylanish davrlarining tahliliga bag'ishlangan. Jumladan odatdagi norelyativistik zarraning uning tezligiga tik bo'lgan magnit maydonidagi aylanish davri ham zarraning tezligiga va demak uning energiyasiga ham bog'liq bo'lishi haqida muhim xulosa olingan.

Shuningdek bu bobda Relyativistik zarralarning siklotronida erishadigan eng katta energiyasi qiymati topilgan.

Magistrlilik ishining uchinchi bobida **harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasi** o'rganilgan. Bu bobda dastlab harakatlanuvchi zaryadlar maydoni ham elektr ham magnit maydonidan iborat b'lishi ko'rsatilgan. Bobning oxirida esa harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasi muhit tezligi yorug'lik tezligiga yaqin bo'lganda ularning o'zaro ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi ko'rsatib berilgan.

Ishning maqsad va vazifalari. Magistrlik ishining asosiy maqsadi zarralarning relyativistik dinamika tenglamalari asosida quyidagi vazifalarni hal qilishdan iborat:

1. Relyativistik zarraning tormozlovshi (to'xtatuvshi) kuch ta'siridagi harakat tenglamasining yechimini topish.
2. Fotoelektronlarning ularning tezligiga tik yo'nalgan elektr maydoni ta'siridagi ikki o'lchovli harakatini tadqiq etish.
3. Zarralarning tezliklari magnit maydoniga perpendikulyar yo'nalgan holdagi markazga intilma tezlanishini tahlil qilish.
4. Relyativistik zarralarning, ularning tezligiga tik yo'nalgan magnit maydonidagi aylanish davri ifodasini keltirib shiqarish.
5. Relyativistik zarralarning siklotronida erishadigan eng katta energiyasi qiymatini topish.
6. Harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasini tadqiq etish.

Tadqiqot usuli va uslubiyoti: Magistrlik ishida relyativistik zarralarning elektr va magnit maydonlaridagi harakatini relyativistik dinamika usullari

yordamida tavsif etishdan iborat. Bundan shuningdek differensial tenglamalarni integrallash usullari ham qo'llanilgan.

Olingan asosiy natijalar: Magistrlik ishida relyativistik zarralarning elektr va magnit maydonlaridagi bir va ikki o'lchovli, Shuningdek harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasi va aylanma harakatlari o'rganilib quyidagi asosiy natijalar olingan.

Relyativistik zarraning to'xtatuvshi kuch tasiridagi to'xtash vaqti hamda to'xtash masofasi ifodalari keltirib chiqarilgan.

Fotoelektronlarning ularning tezligiga tik yo'nalgan elektr maydoni tasiridagi ushish uzoqligi topilgan.

Zarralarning tezliklari magnit maydoniga perpendikulyar yo'nalgan holdagi eng katta markazga intilma tezlanishning son qiymati keltirib shiqarilgan.

Relyativistik zarralarning Lorens kuchi tasiridagi aylanish davri ifodasi hosil qilingan.

Relyativistik zarralarning siklotronda erishadigan eng katta energiya qiymati topilgan.

Natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: Magistrlik ishida olingan natijalar muhim amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardan yuqori energiyali zarralar fizikasi hamda zamonaviy tezlatkichlarni loyihalashda foydalanish mumkin. Shuningdek harakatlanuvchi muhitlardagi relyativistik zarralar dinamikasi asosida relyativistik zarralarning turli muhitlar bilan o'zar ta'sirini keskin oshirish maqsadida foydalanish mumkin.

I BOB. UMUMIY KO'RINISHDAGI RELYATIVISTIK DINAMIKA TENGLAMALARI.

1.1. Elektromagnit maydondagi zaryad uchun lagranj funksiyasi.

Bizga ma'lumki har qanday fizikaviy sistemani harakatini bir qiymatli harakterlash uchun uning Lagranj funksiyasini bilish lozim. Hozirga qadar biz erkin zarrachaning Lagranj funksiyasini quyidagi ko'rinishga ega ekanligini keltirib chiqargan edik.

$$L = -mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} \quad (1.1.1)$$

v - zarrachaning tezlik vektori.

$$S_{\vartheta} = \int \alpha dS = \alpha \int \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} dt = \int L_{\vartheta} dt$$

$$L_{\vartheta} = \alpha c \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}$$

Agar $x \ll 1$ bulsa $(1+x)^n \approx 1+nx$ ($n \in R$) tenglik o'rinli bo'ladi.

$$L_{\vartheta} = \alpha c \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} \approx \alpha c \left[1 - \frac{1}{2} \frac{v^2}{c^2} \right] = \alpha c - \frac{1}{2} \frac{\alpha}{c} v^2$$

$$-\frac{\alpha}{c} = m, \quad \alpha = -mc$$

$$L_{\vartheta} = -mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}$$

Bu munosabatni keltirib chiqarishda quyidagi muhim ikkita xususiyatni e'tiborga oldik.

1. Lagranj funksiyasi invariant xususiyatga ega bo'lgan skalyar kattalik.

2. Moslik prinsipi, ya'ni, har qanday relyativistik ifoda yorug'lik tezligi cheksizga teng chegarada o'zining klassik ifodasiga o'tishi kerak. Huddi shu nuqtai nazarni elektromagnit maydondagi zaryad uchun umumlashtirishga harakat

qilamiz. Buning uchun quyidagicha muloxaza yuritish mumkin: har qanday zaryadlangan zarracha $\vec{E}$ elektr va $\vec{H}$ magnit maydon kuchlanganliklari bilan xarakterlanuvchi elektromagnit maydonda harakatlansa quyidagicha kuch ta'sir qiladi.

$$\vec{F} = \vec{F}_\kappa + \vec{F}_l \quad (1.1.2)$$

$$\vec{F}_\kappa = q\vec{E}; \quad \vec{F}_l = \frac{q}{c}[\vec{v}, \vec{H}] \quad (1.1.3)$$

Buni e'tiborga olib elektromagnit maydondagi zaryad uchun ta'sir funksiyasini quyidagicha yozamiz.

$$S_t = S_e + S_{ut} \quad (1.1.4)$$

Bu yyerda $S_{u,t}$ – o'zaro ta'sir Lagranjiyaniga mos keluvchi ta'sir funksiyasi, S_e – erkin zarraning harakatiga mos keluvchi ta'sir funksiyasi, S_t – to'la ta'sir funksiyasi.

$$L_t = L_e + L_{ut}; \quad S_e = \int \alpha dS \quad (1.1.5)$$

α -moslik prinsipi.

dS –invariant interval

$$S_e = -mc^2 \int \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} dt = \int L_e dt \quad (1.1.6)$$

Endi muammo elektromagnit maydon bilan zaryadning o'zaro ta'sirini ifodalovchi hadni keltirib chiqarishdan iborat. Oldingi darslarimizda biz har qanday zarrachani xarakterlovchi to'rt o'lchovli radius-vektorni kiritgan edik.

Zaryadning elektromagnit maydonidagi harakatini xarakterlovchi Logranj funksiyasini keltirib chiqarishda avvalgidek, ta'sir funksiyasi Lorens almashtirishiga nisbatan invariant bo'lishligidan foydalanamiz. Biz oldingi darslarimizda bunday xususiyatga har qanday 4 vektorlarning skalyar ko'paytmasi ega ekanligini ko'rgandik. Demak elektromagnit maydon bilan zarrachaning o'zaro ta'sirini ifodalovchi hadni quyidagicha yozamiz.

$$S_{ut} = \int \beta A_i dx^i$$

Bu yyerda x^i relyativistik zarraning to'rt radius vektori bo'lib, u avvalgi natijalarimizga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega edi.

$$x^i = (x_0, -\vec{r})$$

A_i esa elektromagnit maydonning to'rt o'lchovli potentsiali bo'lib, uni har doimdagidek quyidagi ko'rinishda yozish mumkin

$$A_i = (A_0, \vec{A}) = (\varphi, \vec{A})$$

Demak to'rt o'lchovli elektromagnit maydon potentsialini skalyar va vektor potentsiallar bilan bir qiymatli aniqlash mumkin. Bizning vazifamiz elektromagnit maydonda zarrachaga ta'sir qiluvchi kuchni bilgan holda uning skalyar va vektor potentsiallari orqali qanday aniqlanishini topishdan iborat. Buning uchun huddi avvalgidek dastlab o'zaro ta'sirga mos keluvchi Lagranj funksiyasini topish lozim.

Endi to'rt o'lchovli ikkita vektorni skalyar ko'paytmasini topamiz.

$$A_i dx^i = A_0 dx^0 + A_1 dx^1 + A_2 dx^2 + A_3 dx^3 \quad d\vec{r} = \vec{v} dt \quad (1.1.7)$$

Shunday kilib S_{ut} quyidagi kurinishga ega:

$$S_{ut} = \beta \int (\varphi c dt - \vec{A} d\vec{r}) = \beta \int (\varphi c - \vec{A} \vec{v}) dt = \int L_{ut} dt \quad (1.1.8)$$

Demak, elektromagnit maydondagi zaryadlangan zarrachaga elektromagnit maydon o'zaro ta'sirini ifodalovchi Lagranj funksiyasi quyidagicha:

$$L_{ut} = \beta (\varphi c - \vec{A} \vec{v}) \quad (1.1.9)$$

Demak, elektromagnit maydondagi zaryad uchun Lagranj funksiyasi quyidagicha bo'ladi

$$L = L_e + L_{ut} = -mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} + \beta (\varphi c - \vec{A} \vec{v}) \quad (1.1.10)$$

Hozircha bizga β ni aniqlash muammosi turibdi. Prinsip nuqtai nazaridan u birliklar sistemasining tanlanishigagina bog'liq. Uni aniqlash uchun relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasiga murojaat qilamiz.

Elektromagnit maydonda harakatlanayotgan zarrachaning impulsi (1.1.10) formulaga binoan ikki haddan iborat bo'lib, birinchi had $\vec{P}_e$ erkin zarraning impulsi va ikkinchi had esa uning elektromagnit maydon bilan ta'sirini aks ettiruvchi $-\beta\vec{A}$ impuls yig'indisidan iborat bo'ladi.

Endi zarrachaga ta'sir qiluvchi kuch uning impulsini vaqt bo'yicha o'zgarish tezligiga tengligidan foydalanib quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$\vec{A} = \vec{A}(x, y, z, t);$$

$$d\vec{A} = d\vec{A}(\vec{r}, t) = \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} dx + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} dy + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} dz + \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} dt$$

$$\frac{d\vec{A}}{dt} = \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} \frac{dt}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} \frac{dx}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} \frac{dy}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} \frac{dz}{dt} = \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} v_x + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} v_y + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} v_z$$

Oxirgi haddan β ni aniqlaymiz $\mathbf{E}$ va $\mathbf{H}$ ni ϕ va $\mathbf{A}$ potentsiallar orqali ifodalaymiz.

$$\vec{F} = \frac{d\vec{P}_e}{dt} - \beta \frac{d\vec{A}}{dt} = \frac{d\vec{P}_e}{dt} - \beta \left(\frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} v_x + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} v_y + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} v_z \right)$$

$$\frac{d\vec{P}_e}{dt} = q\vec{E}; \quad -\beta \frac{d\vec{A}}{dt} = \frac{q}{c} [\vec{v}, \vec{H}]$$

$$\beta = -\frac{\frac{q}{c} [\vec{v}, \vec{H}]}{\frac{d\vec{A}}{dt}} = -\frac{\frac{q}{c} [\vec{v}, \vec{H}]}{\frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} v_x + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} v_y + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} v_z}$$

$$L_{ut} = \beta(\phi c - \vec{A} \vec{v});$$

Eslatma: β doimiyni aniqlash uchun quyidagi sodda muloxazadan foydalanish yetarli, ya'ni $\vec{A} = 0$ bo'lsa o'zaro ta'sir lagranj funksiyasi quyidagicha bo'ladi.

$$L_{ut} = \beta \phi c = -q \phi \quad \beta = -\frac{q}{c}.$$

Natija:

$$L_{ut} = \beta (\varphi c - \vec{A} \cdot \vec{v}) = -\frac{q}{c} (\varphi c - \vec{A} \cdot \vec{v}) = -q \varphi + \frac{q}{c} \vec{A} \cdot \vec{v}.$$

Elementar zarra elektron bo'lsa.

$$L_{ut} = -e \varphi + \frac{e}{c} \vec{A} \cdot \vec{v}.$$

1.2. Relyativistik zarraning energiyasi va impulsini orasidagi bog'lanish.

Erkin zarraning relyativistik Lagranj funksiyasini keltirib chiqarishda ikkita muhim xususiyatdan foydalaniladi.

1. Invariantlik.

2. Moslik prinsipi.

Klassik mexanikadagidek, zarra harakatining relyativistik tenglamalarini chiqarish uchun biz eng kichik ta'sir prinsipiga asoslanamiz.

Ma'lumki, erkin zarra uchun ta'sir:

$$S = -mc \int_a^b ds$$

ko'rinishda beriladi, bunda integral berilgan ikki hodisa orasidagi dunyoviy chiziq bo'yicha integralni ifodalaydi. Buni vaqt bo'yicha integralga aylantirib yozish mumkin

Eng kichik ta'sir prinsipi umumiy ta'rifiga ko'ra taqqoslagan holda zarraning relyativistik Lagranj funksiyasini

ko'rinishda yozishimiz mumkin.

Zarraning relyativistik Lagranj funksiyasini keltirib chiqarishda ikkita muhim xususiyat invariantlik va moslik prinsipi inobatga olish muhimdir. Bu yerda m - zarraning massasi v - uning tezligi. Bundan zarraning impulsini keltirib chiqaramiz.

$$\vec{p} = \frac{\partial L}{\partial v_x} \vec{i} + \frac{\partial L}{\partial v_y} \vec{j} + \frac{\partial L}{\partial v_z} \vec{k} \quad (1.2.1)$$

$$\vec{p} = \text{grad}_v L \quad (1.2.2)$$

1.2.1-dan ko'rinadiki Lagranj funksiyasi tezlik modulini funksiyasidir.

$$L = L(v) \quad (1.2.3)$$

U holda

$$\vec{p} = \text{grad } L(v) = \frac{\partial L}{\partial v} \text{grad } v \quad (1.2.4)$$

$$\frac{\partial L}{\partial v} = -mc^2 \frac{1}{2} \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} (-1/c^2) 2v = \frac{mv}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} = p \quad (1.2.5)$$

$$\text{grad } v = \frac{\vec{v}}{v} \quad (1.2.6)$$

$$p = \frac{m\vec{v}}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \quad (1.2.7)$$

Shunday qilib, relyativistik zarraning impulsi klassik zarradan farqli ravishda v modulning chiziqli bo'lmagan funksiyasi ekan. Grafikda klassik va relyativistik nuqtai nazardan impuls bog'liqligini chizaylik.

Zarrachaga c tezlik berish uchun cheksiz katta energiya kerak ekan. Shuning uchun ham ishonch hosil qilamizki real zarraning harakati har doim yorug'lik tezligidan kichik tezlik bilan sodir bo'ladi. Endi olingan natijalardan foydalanib relyativistik zarraning energiyasini topamiz.

$$E = \vec{p}\vec{v} - L = \frac{mv^2}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} + mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} = \frac{mc^2}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} = E \quad (1.2.8)$$

ifoda relyativistik zarraning energiyasi uning tezlikka bog'liq ravishda o'zgarishini ifodalaydi va eng muhim klassik fizikadan farqli ravishda $v = 0$ da

$$E_0 = mc^2$$

Bu natijani Eynshteyn tomonidan olingan. Endi buni boshqacha qaraymiz, ya'ni zarrachaning kinetik energiyasini topamiz. Bu energiya uning to'la energiyasining tinchlikdagi energiyasi ayirmasiga teng

$$E_k = E - E_0 \quad E_k = E_0 \left[\frac{1}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} - 1 \right] \quad (1.2.9)$$

$$\begin{aligned} v = 0 & \quad E_k = 0 \\ E = E_0 & \quad E_k = \frac{mv^2}{2} \end{aligned} \quad (1.2.10)$$

$v \ll c$ (!) bo'lsa (10) ifoda moslik prinsipiga binoan (11) ga o'tish kerak.


$$E = E_0 [(1 - v^2 / c^2)^{-1/2}] = E_0 [1 + 1/2 (v^2 / c^2) - 1] = mv^2 / 2$$

Demak, tezlikning c ga nisbatan kichik qiymatlaridagina kinetik energiya klassik formula bo'yicha topilishi mumkin. V ixtiyoriy bo'lsa bu ikki bog'lanish bir-biridan farq qiladi, bu mutlaqo mantiqsiz.

Endi relyativistik fizikada muhim ahamiyatga ega bo'lgan va uning qo'llanadigan yana bir muhim munosabatini keltirib chiqarishga o'tamiz. Bu zarrachaning energiyasi va impulsi orasidagi bog'lanishdir.

$$\begin{aligned} p &= p(v) & E &= E(v) & E &= E(p) \\ p &= Ev / c^2 & v &= c & & \\ p &= E / c & E &= pc & & \end{aligned} \quad (1.2.11)$$

Bu muhim ahamiyatga ega bo'lib, relyativistik nuqtai nazardan tinchlikdagi massasi 0 ga teng bo'lgan va yorug'lik tezligida tarqala oluvchi zarrachaning mavjudligini ko'rsatadi, buni birinchi bo'lib Eynshteyn keltirib chiqargan. Bu elektromagnit maydon kvanti fotonlardan Olingan natijani tushunish uchun fotonning energiyasi va impulsi orasidagi bog'lanishni nazarda tutamiz:



$$p = \frac{cmv}{c\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} = mc \frac{v/c}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}}$$

$$\left(\frac{p}{mc}\right)^2 = \frac{(v/c)^2}{1 - v^2/c^2}; \quad v^2 = \frac{p^2 c^2}{p^2 + (mc)^2}; \quad v = \frac{pc}{\sqrt{p^2 + (mc)^2}} \quad (1.2.12)$$

$$m = 0; \quad v = c$$

Bu muhim ahamiyatga ega bo'lib, relyativistik nuqtai nazardan tinchlikdagi massasi 0 ga teng bo'lgan va yorug'lik tezligida tarqala oluvchi zarrachaning mavjudligini ko'rsatadi, buni birinchi bo'lib Eynshteyn keltirib chiqargan. Bu elektromagnit maydon kvanti fotonlardan iborat.

$$p = E v / c^2 = \frac{E}{c^2} \frac{pc}{\sqrt{p^2 + (mc)^2}} \quad (1.2.13)$$

$$E = c\sqrt{p^2 + (mc)^2} = \sqrt{p^2 c^2 + m^2 c^4}; \quad E^2 = E_0^2 + (pc)^2 \quad (1.2.14)$$

Biz olgan natija relyativistik fizikadagi Pifagor teoremasi. Oxirgi natijani olamiz, $E = pc$ bu faqat $m = 0$ bo'lgan zarracha uchungina o'rinli. Endi oxirgidan foydalanib zarrachaning kinetik energiyasi uchun ifoda keltirib chiqaramiz.

$$E_k = E - E_0 = \sqrt{E_0^2 + (pc)^2} - E_0 = E_0 \left\{ \sqrt{1 + (pc/E_0)^2} - 1 \right\}$$

$$pc/E_0 \ll 1 \quad E_k = E[1 + 1/2(pc/E_0) - 1] = p^2/2m$$

$$E_k = p^2/2m$$

Demak, zarrachaning kinetik energiyasi faqat uning impulsi $p \ll E_0/c = mc$ bo'lgandagina o'rinli bo'ladi.

Biz zarraning relyativistik Lagranj funksiyasi, relyativistik zarraning energiyasi va impulsi orasidagi bog'lanishni taxlil qildik.

V a z i f a: Agar zarrachaning energiyasi ikkilangan tinchlikdagi energiyaga teng bo'lsa, uning tezligi va impulsini toping.

1.3. Relyativistik dinamika tenglamasi.

Biz hozirga qadar zarraning relyativistik Lagranj funksiyasi, relyativistik zarraning energiyasi va impulsi orasidagi bog'lanishni taxlil qilgan edik. Endigi vazifa relyativistik zarraga tashqi kuch ta'sir qilganda uning tezligi va ixtiyoriy vaqt momentidagi koordinatalarini topamiz. Bizga ma'lumki, ta'sir tabiati qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar jism impulsining vaqt bo'yicha o'zgarishi bu kuchga teng ya'ni

$$\frac{d\vec{P}}{dt} = \vec{F} \quad (1.3.1)$$

Agar jismga ta'sir qiluvchi kuchlarning teng ta'sir qiluvchisi 0 ga teng bo'lsa, ya'ni $F = 0$

$$p(t) = p_0 = \text{const} \quad (1.3.2)$$

ya'ni jismning impulsi o'zgarmas bo'ladi. Buni odatda impulsning saqlanish qonuni deyiladi. (1) dan ko'rinadiki jismning harakat tenglamasini topish uchun jismning impulsi va tezligi orasidagi bog'lanishni bilish lozim

$$p = p(v) \quad (1.3.3)$$

Oldingi natijalarga binoan impuls va tezlik quyidagicha bog'langan, ya'ni Relyativistik zarraning impulsi tezlikka nochizig'iy bog'langan. Demak, harakat tenglamasi ham klassik fizikadan farqli ravishda nochizig'iy ko'rinishga ega bo'ladi. Endi shu tenglamani keltirib chiqaramiz.

$$\frac{d\vec{p}}{dt} = m \left\{ \vec{v} \frac{d}{dt} (1 - (v/c)^2)^{-1/2} + (1 - (v/c)^2)^{-1/2} \frac{d\vec{v}}{dt} \right\} \quad (1.3.4)$$

Endi hisoblangan hosilani o'z o'rniga qo'yamiz.

$$\frac{d\vec{p}}{dt} = m \left\{ (1 - (v/c)^2)^{-3/2} \frac{\vec{v} v}{c^2} \frac{dv}{dt} + (1 - (v/c)^2)^{-1/2} \frac{d\vec{v}}{dt} \right\} \quad (1.3.5)$$

(1.3.5) ni quyidagicha o'zgartiramiz

$$\vec{v} = v \vec{n} \quad (1.3.6)$$

bu yyerda $v = |\vec{v}|$ - tezlik vektorining moduli, $\vec{n}$ esa tezlikning birlik vektori. U holda

(1.3.6)ning muhimligi shundaki u tezlik vektorining o'zgarishini quyidagi ikki holda eng sodda ko'rinishda bo'lishini ko'rsatadi.

1- hol.

$$\vec{F} \perp \vec{v} \quad \frac{dv}{dt} = 0; \quad \frac{d\vec{v}}{dt} = v \frac{d\vec{n}}{dt} \quad (1.3.7)$$

2-hol.

$\vec{F} || \vec{v}$ bu holda jism to'g'ri chiziqli harakat qiladi va tezlik vektorining yo'nalishi o'zgarmaydi.

$$\frac{d\vec{n}}{dt} = 0 \quad \frac{d\vec{v}}{dt} = \vec{n} \frac{dv}{dt} \quad (1.3.8)$$

Endi umumiy holda ko'rib chiqamiz. Buning uchun (8) dan foydalanamiz. Shunday qilib, relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$\vec{F} = \frac{m}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \left[\frac{1}{1 - \frac{v^2}{c^2}} \vec{n} \frac{dv}{dt} + v \frac{d\vec{n}}{dt} \right] \quad (1.3.9)$$

Buning muhimligi shuki $\vec{F}$ kuch va zarraning tezligi v bir-biriga nisbatan qanday burchakda yo'nalishidan qat'iy nazar, haqiqatan ham (10)dan ko'yidagi ikki natijani keltirib chiqarish qiyin emas.

$$1. \text{ hol } \frac{dv}{dt} = 0 \quad \vec{F} = \frac{m v}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \frac{d\vec{n}}{dt} \quad (1.3.10,a)$$

$$2. \text{ hol } \frac{d\vec{n}}{dt} = 0 \quad \vec{F} = \frac{m}{\left(1 - \frac{v^2}{c^2}\right)^{3/2}} \frac{dv}{dt} \vec{n} \quad (1.3.10,b)$$

(1.3.10,a) va (1.3.10,b) tenglamalarni quyidagi sof ko'rinishda yozish mumkin

$$\vec{F} = \frac{m}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \frac{d\vec{v}}{dt} \quad (1.3.11,a) \qquad \vec{F} = \frac{m}{\left(1 - \frac{v^2}{c^2}\right)^{3/2}} \frac{d\vec{v}}{dt} \quad (1.3.11,a)$$

Oxirgi natijalarni klassik fizika bilan taqqoslaymiz

$$\vec{F} = m \frac{d\vec{v}}{dt} \quad (1.3.11,c)$$

(1.3.11,a) ni (1.3.11,b) va (1.3.11,c) bilan taqqoslaymiz va umumiy massa kelib chiqadi.

$$M_{\perp} = \frac{m}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}}; \qquad M_{\parallel} = \frac{m}{\left(1 - \frac{v^2}{c^2}\right)^{3/2}} \quad (1.3.12)$$

Bu munosabatni faqat taqqoslash ma'nosidagina ishlatish mumkin, chunki massani ikkiga ajratish ma'noga ega emas.

Natija: relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasi $c \rightarrow \infty$ da harakatning klassik tenglamasiga o'tish mumkin.

$$\vec{F} = m \left[\vec{n} \frac{dv}{dt} + v \frac{d\vec{n}}{dt} \right] = m \frac{d\vec{v}}{dt} \quad (1.3.13)$$

Oxirgi munosabat Nyutonning II qonuni bo'lib faqat jismning harakat tezligi va c yorug'lik tezligi ($v \ll c$) nisbat e'tiborga olinmasa bo'ladigan darajada kichik bo'lsa o'rinli. Bizga ma'lumki, atom fizikasida turli zarrachalarning parchalanishi va o'zaro to'qnashuvi muhim rol o'ynaydi va eng muhimi hozirgi zamon tezlatgichlari elektronlar yoki ionlarni yorug'lik tezligiga yaqin tezliklargacha tezlashtirish imkoniyatini beradi va bu holda Nyutonning harakat tenglamasi yaroqsiz bo'lib qoladi, ya'ni tezlagichlarni (13) ifodaga binoan loyixalashtirib bo'lmaydi.

1.4. Relyativistik zarraning doimiy kuch ta'siridagi bir o'lchovli harakati.

Bu holda relyativistik dinamika asosiy tenglamasi quyidagi sodda ko'rinishga ega bo'ladi.

$$\vec{F} = \frac{m}{\left(1 - \frac{v^2}{c^2}\right)^{\frac{3}{2}}} \frac{d\vec{v}}{dt} \quad \vec{F} // \vec{v} \quad (1.4.1)$$

(1.4.1) ni biz qaralayotgan holda, oddiy sistemalar holida almashtirish mumkin.

$$\vec{F}_x = \frac{m}{\left(1 - \frac{v_x^2}{c^2}\right)^{\frac{3}{2}}} \frac{dv_x}{dt} \quad (1.4.2)$$

Bu yyerda F_x va v_x lar kuch va tezlikning X o'qdagi proyeksiyasi

$$c \rightarrow \infty \quad F = m \frac{dv}{dt} \quad (\text{klassik harakat tenglamasi})$$

$$\int m dv = \int F dt \quad m(v - v_0) = Ft \quad (1.4.3)$$

Demak, klassik fizika nuqtai nazaridan jismga doimiy F kuch ta'sir qilsa jism tekis o'zgaruvchan harakat qiladi, ya'ni uning tezlanishi.

$$dv / dt = F / m = \text{const} \quad (1.4.4)$$

Ko'rinib turibdiki jismning tezligi chiziqli qonun bo'yicha o'zgarib borar ekan. $F > 0$ bo'lgan holni ko'raylik. Ma'lum bir chekli vaqt o'tgandan keyin yorug'lik tezligiga teng bo'lishi kerak edi. Lekin bu natija nisbiylik nazariyasining natijalariga zid. Demak, bu masalani relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasidan kelib chiquvchi (1.4.2) ga binoan taxlil qilishga o'tamiz. Endi (1.4.2) ni yechishga o'tamiz.

$$\frac{v}{c} = u \quad v = cu \quad dv = cdu; \quad Ft = mc \int \frac{du}{(1 - u^2)^{\frac{3}{2}}};$$

$$u = \sin \varphi; \quad du = \cos \varphi d\varphi \quad 1 - \sin^2 \varphi = \cos^2 \varphi$$

$$(\cos^2 \varphi)^{\frac{3}{2}} = \cos^3 \varphi \quad Ft = mc \int \frac{\cos \varphi}{\cos^3 \varphi} d\varphi = mc \int \frac{1}{\cos^2 \varphi} d\varphi = mctg \varphi;$$


$$Ft = mctg \varphi; \quad tg \varphi = \frac{Ft}{mc} \quad (1.4.5)$$

(1.4.5) -relyativistik zarra tezligini parametrik ko'rinishda ifodalaydi. Bundan vektorning o'zgarish qonuniyatini topish qiyin.

$$\frac{v}{c} = \sin \varphi = tg \varphi \cos \varphi = \frac{tg \varphi}{\sqrt{1 + tg^2 \varphi}}; \quad v = \frac{ctg \varphi}{\sqrt{1 + tg^2 \varphi}} = \frac{F}{m} t \frac{1}{\sqrt{1 + \left(\frac{Ft}{mc} \right)^2}};$$

$$v = \frac{\frac{F}{m} t}{\sqrt{1 + \left(\frac{Ft}{mc} \right)^2}} \quad (1.4.6)$$

Buni grafikda tasvirlaymiz $t \rightarrow 0 \quad v \rightarrow 0$



Natija:

1. Agar klassik va relyativistik zarracha bir xil doimiy kuch ta'sir qilsa bir xil vaqt momentida relyativistik zarrachaning tezligi klassik zarrachaning tezligidan kichikroq bo'ladi. Bunga sabab relyativistik zarraning og'irroq bo'lib borishidir

2. Ko'rinib turibdiki hech qanday zarrachaning tezligini yorug'lik tezligiga teng tezligacha tezlashtirib bo'lmaydi, buning uchun cheksiz vaqt lozim bo'lar edi.

(1.4.6) dan foydalanib relyativistik zarraning ixtiyoriy vaqt momentidagi x koordinatasini aniqlash formulasini keltirib chiqaring.

Ko'rsatma:
$$v = \frac{dx}{dt}; \quad x = \int \frac{\frac{F}{m} t}{\sqrt{1 + \left(\frac{Ft}{mc} \right)^2}} dt;$$

Zarralarning elektr va magnit maydonlardagi harakati o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biridir. SHunki zamonaviy tezlatgishlar, elektron kuchaytirgishlar, massg'spektrograflarning ishlashi shunga asoslangan. Shuning uchun mazkur bitiruv malakaviy ishida biz relyativistik ya'ni yoriqlik tezligiga yaqin tezliklar bilan harakatlanuvshi zarralarning elektr va magnit maydonlaridagi ayrim harakatlarini tadqiq etamiz.

Relyativistik zarraning tezligi $\vec{v}$ hamda impulsi $\vec{P}$ o'zaro quyidagi munosabat orqali bog'langan

$$\vec{P} = \frac{m \vec{v}}{\sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}}} \quad (1.4.7)$$

bu yyerda: m -zarraning massasi, c - yorug'lik tezligi

Demak, zarra impulsi $\vec{P}$ va zarra tezligi $\vec{v}$ o'zaro noshizig'iy bog'langani uchun hatto doimiy kuch ta'siridagi zarraning harakati ham tekis o'zgaruvshan harakat bo'lmaydi. Ya'ni zarrachaning tezlanishi vaqtga bog'liq bo'ladi: bu xulosani ushbu bobning qator bo'limlarida tahlil qilib ishonsh hosil qilamiz.

1.5. Relyativistik zarraning doimiy tormozlovshi kuch ta'siridagi harakati.

Zamonaviy tezlatgishlarda zarralar Shunday katta tezlik yoki energiyalarga ga bo'ladiki, ular tezlatgishlardan shiqqanidan so'ng ularni to'htatish juda qiyin muammoga aylanadi Shuning uchun ushbu bo'limda boshlang'ish tezligi v_0 bo'lib, bu tezlikka qaramag'qarshi yo'nalgan doimiy F kuch ta'siridagi relyativistik zarraning o'rganishga kirishamiz.

Buning uchun quyidagi relyativistik dinamikaning asosiy tenglamasidan foydalanamiz:

$$\frac{d\vec{p}}{dt} = \vec{F} \quad (1.5.1)$$

Agar zarra faqat x o'qi bo'lab, harakatlanayotgan bo'lsa, ikkinshi harakat tenglamasini quyidagi shlyar ko'rinishda yozish mumkuni

$$\frac{dp_x}{dt} = F_x = -f \quad (1.5.2)$$

Bu yerda: P_x -zarra impulsining x o'qidagi proektsiyasi, f esa zarrachaga ta'sir qiluvshi kuchning modulini bildiradi.

Ushinshi harakat tenglamasini ikkala tomonini dt ga ko'paytirib zarra impulsi proektsiyasining o'zgarishi dp_x ni topamiz:

$$dp_x = -f dt \quad (1.5.3)$$

Natija: zarrachaga ta'sir qiluvshi kuch doimiy bo'lganligi uchun oxirgi tenglamaning ikkala tomonini integrallab, quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$P_x(t) - P_{ox} = -Ft, \quad P_x(t) = P_{ox} - Ft \quad (1.5.4)$$

Bu yerda: P_{ox} zarraning boshlang'ish impulsining proektsiyasi, $P_x(t)$ zarrachaning t vaqtdagi impulsi, zarrachaning harakat vaqtini bildiradi. Ko'rinish turibdiki, zarraning to'xtash vaqti t da uning tezligi va demak, impulsi nolga teng bo'lganligi uchun relyativistik zarraning doimiy kuch ta'siridagi tormozlanish yoki to'xtash vaqti uchun quyidagi muhim ifodani hosil qilamiz:

$$t_{rel} = \frac{P_o}{F} \equiv \frac{mv_0}{F \sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}} \quad (1.5.5)$$

Bu natija yorug'lik tezligiga nisbatan judaham kishik tezliklar bilan harakatlanuvshi zarralar holidan keskin farq qiladi. Shunki, bu holda zarraning doimiy kuch ta'siridagi to'xtash vaqti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$t = \frac{mv_0}{F} \quad (1.5.6)$$

Oxirgi ikki formulani taqqoslash asosida relyativistik zarraning to'xtash vaqti va norelyativistik zarraning to'xtash vaqtlari nisbati uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$\frac{t_{rel}}{t} = \frac{1}{\sqrt{1 - \frac{v_0^2}{c^2}}} \quad (1.5.7)$$

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki, zarraning v_0 boshlang'ich tezligi yorug'lik tezligiga yaqinlashgan sayin bu to'xtash vaqtlarining nisbati sheksiz ortadi. Masalan, norelyativistik elektronning to'xtash vaqti t_{h1} bir millisekundda teng bo'lsa, huddi Shunday kuch ta'sirida tormozlanuvchi zarraning to'xtash vaqti uning harakat tezligidan mingdan bir foizga farq qilgan tezlik uchun ($v_{u0,999999c}$) quyidagi qiymatga ega bo'ladi.

$$\frac{t_{rel}}{t} = \frac{1}{\sqrt{1 - 0,99998}} \approx \frac{1}{0,00447} \approx 225 (!) \quad (1.5.8)$$

Ko'rinib turibdiki mazkur holda relyativistik elektronning to'xtash vaqti 225 marta ortar ekan. Holbuki hozirgi Kollayderlarda zarralarning tezliklarini yorug'lik tezligining milliondan bir foizda farq qiluvchi tezliklargasha tezlashtirish mumkin. Bunday holda endi zarrachaning tormozlanish vaqti quyidagi tartibda keskin oshadi: ($v_{u0,999999999c}$)


$$1 - \frac{v_0^2}{c^2} = 0,000000002$$

Bo'lgani uchun relyativistik zarraning to'xtash vaqti

$$\frac{t_{rel}}{t} \approx 5 \cdot 10^7 \quad (1.5.9)$$

ya'ni ellik milion marta katta bo'ladi.

Demak, haqiqatdan ham relyativistik zarralarni to'htatish zamonaviy tezlatgishlar hamda plazma fizikasi sohasidagi eng murakkab va o'z eshimini kutayotgan muammolardan biri ekanligini ko'rsatadi.



1.5. 1-chizma. Relyativistik zarraning tormozlanish vaqtiga bog'likligi

Endi beshinshi ifodadan foydalanib relyativistik zarraning ihtiyoriy vaqtdagi tezligini topamiz:

$$P_x(x) = \frac{mv_x}{\sqrt{1 - \frac{v_x^2}{c^2}}} \equiv P_0 - Ft \quad (1.5.10)$$

Bu ifodaning ikkala tomonini kvadratga ko'tarib, quyidagi natijani hosil qilamiz:

$$m^2 v_x^2 = \left(1 - \frac{v_x^2}{c^2}\right) (P_0 - Ft)^2 \quad (1.5.11)$$

Endi oxirgi ifodadan foydalanib zarra tezligini aniqlash uchun quyidagi tenglamani hosil qilamiz.

$$\frac{v_x^2}{c^2} \left[m^2 + \frac{(P_0 - Ft)^2}{C^2} \right] = \frac{(P_0 - Ft)^2}{C^2} \quad (1.5.12)$$

Natija: demak relyativistik zarraning doimiy tormozlovshi kuch ta'siridagi ihtiyoriy vaqtdagi tezligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$v = \frac{P_0 - Ft}{m \sqrt{1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2}} \quad (1.5.13)$$

Holbuki relyativistik bo'lmagan ya'ni tezligi yorug'lik tezligiga nisbatan juda ham kishik $v \ll c$ zarraning tezligi doimiy tormozlovshi kuch ta'sirida quyidagi shiziqli qonun bo'yisha tuziladi.

$$v = \frac{P_0 - Ft}{m} \equiv v_0 - \frac{F}{m}t \quad (1.5.14)$$

Biz olgan (1.5.14) –ifodaning muhimligi shundan iboratki endi zarraning tezligi vaqtning noshizig'iy funktsiyasi bo'ladi. Ya'ni zarraning tezlanishi vaftda bog'liq bo'ladi. Boshqasha qilib aytganda relyativistik zarraning doimiy kuch ta'siridagi harakati tekis o'zgaruvshan tarzda sodir bo'lmaydi.

Haqiqatdan ham relyativistik zarra tezligini tasvirlovchi (1.5.14) -ifodaga ko'ra, uning tezlanishi quyidagiga teng.

$$\begin{aligned} a = \frac{dv}{dt} &= \frac{1}{m} \left\{ - \frac{F}{\sqrt{1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2}} + (P_0 - Ft) \cdot (-1) \cdot \frac{1 \cdot \frac{1}{(mc)^2} (P_0 - Ft) \cdot (-F)}{\left[1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2\right] \sqrt{1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2}} \right\} \\ &\equiv - \frac{F}{m \sqrt{1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2}} \cdot \left\{ 1 - \frac{\left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2}{1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2} \right\} \equiv - \frac{F}{m \left[1 + \left(\frac{P_0 - Ft}{mc}\right)^2\right]^{\frac{3}{2}}} \end{aligned} \quad (1.5.15)$$

Natija: demak, relyativistik zarra tezlanishining moduli vaqt o'tishi bilan asta sekin kamayib borar ekan. Holbuki norelyativistik zarraning tezlanishi moduli doimiy bo'lib, vaqtga bog'liq emas.


Jumladan $t=0$ vaqtda relyativistik zarra tezlanishining moduli

$$a = (0) = \frac{F}{m \sqrt{\left[1 + \left(\frac{P_0}{mc}\right)^2\right]^3}} \quad (1.5.16,a)$$

va relyativistik zarraning to'xtash vaqtida

$$a(\tau) = \frac{F}{m} \quad (1.5.16,b)$$

Qiymatda ega bo'ladi: ya'ni relyativistik zarraning harakati mobaynida uning tezlanishi har doim norelyativistik zarra tezlanishiga teng bo'lar ekan



1.5.2-chizma. Relyativistik zarraning markazga intilma tezlanishini tezlikka

Endi oldingi olingan natijalardan foydalanib relyativistik zarraning harakat qonunini topamiz:

$$v = \frac{dx}{dt} = \frac{P_o}{m \sqrt{1 + \left(\frac{P_o}{mc}\right)^2}} \quad (1.5.17)$$

Bu ifodani ikkala tomonini dt ga ko'paytirib va integrllab quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$x(t) - x_o = \int_0^t \frac{(P_o - Ft) dt}{m \sqrt{1 + \left(\frac{P_o - Ft}{mc}\right)^2}} \quad (1.5.18)$$

Bu yerda: $x_0=0$ zarralarning boshlang'ish koordinatasi, $x(t)$ g' relyativistik zarraning t vaqtdagi koordinatasi.

Endigi vazifa (1.5.18)g'ifodaning o'ng tomonidagi integrali hisoblashdan iborat. Buning uchun quyidagi o'zgaruvshini kiritamiz.

$$b^2 = 1 + \left(\frac{P_o - Ft}{mc}\right)^2 \quad (1.5.19)$$

Bu ifodaning ikkala tomonini differentsiyalab quyidagi natijani hosil qilamiz.

$$bdb = \frac{1}{(mc)^2} \cdot (P_o - Ft) \cdot (-F) dt \quad (1.5.20)$$

Bu yyerda

$$(P_o - Ft) dt = - \frac{(mc)^2}{F} \cdot bdb \quad (1.5.21)$$

ekanligini topamiz. Oxirgi ifodani hosil qilamiz.

$$\begin{aligned} x(t) &= - \int_{b(o)}^{b(t)} \frac{1}{m} \cdot \frac{(mc)^2}{F} \cdot db \equiv - \frac{mc^2}{F} [b(t) - b(0)] \equiv - \frac{mc^2}{F} \left\{ \sqrt{1 + \left(\frac{P_o - Ft}{mc} \right)^2} - \sqrt{1 + \left(\frac{P_o}{mc} \right)^2} \right\} \\ &\equiv \frac{mc^2}{F} \left\{ \sqrt{1 + \left(\frac{P_o}{mc} \right)^2} - \sqrt{1 + \left(\frac{P_o - Ft}{mc} \right)^2} \right\} \end{aligned} \quad (1.5.22)$$

Natija: demak, boshlang'ish tezligi v_0 bo'lgan relyativistik zarraning doimiy F kuch ta'siridagi tormozlanish masofa quyidagi ifoda bilan aniqlanadi.

$$L_{rel} = \frac{mc^2}{F} \cdot \left[1 + \frac{\beta^2}{1 - \beta^2} - 1 \right] \equiv \frac{mc^2}{F} \cdot \left[\frac{1}{\sqrt{1 - \left(\frac{v}{c} \right)^2}} - 1 \right] \quad (1.5.23)$$

Holbuki relyativistik zarraning doimiy kuch ta'siridagi tormozlanish yo'li quyidagi ifoda bilan aniqlanar edi.

$$L = \frac{v_0^2}{2a} \equiv \frac{mv_0^2}{2F} \quad (1.5.24)$$

Oxirgi ikki ifodani taqqoslab shu natijaga kelimizki relyativistik zarraning tormozlanish yo'li uning tezligi yorug'lik tezligiga juda ham yaqin bo'lsa, masalan: $v_{a0,999999999}c$ bo'lsa, tormozlanish quyidagisha bo'ladi.

$$\frac{L_{rel}}{L} = 2 \cdot \frac{1}{\beta^2} \cdot \left[\frac{1}{\sqrt{1 - \beta^2}} - 1 \right] \quad (1.5.25)$$

Ko'rinib turibdiki, tezlanishning ushbu qiymatida relyativistik zarraning tormozlanish masofasi norelyativistik zarraninkidan taqriban yuz million marta katta bo'lar ekan. (3-chizma)

Bu bo'limda olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, aqiqatdan ham bu natijalar muhim ilmiy ahamiyatga ega

Xulosa

Magistrlik ishining birinchi bobi **umumiy ko'rinishdagi relyativistik dinamika tenglamalari** tahlili hamda uning bir o'lchovli va ikki o'lchovli harakati tahliliga bag'ishlangan.

Bu bobda dastlab relyativistik zarralarning tormozlanish vaqti va tormozlanish yo'li ifodalari zarrachaning boshlang'ish energiyasi va tormozlanuvchi kuch orqali keltirib chiqarilgan. so'ngra esa fotoelektronlarning elektr maydoniga tik yo'nalishda uchib kirgan holi uchun ularning harakat qonunlari keltirib chiqarilgan. Olingan natijalar fotoelektronlarning tezliklariga bog'liq holda odatdagi norelyativistik zarralarga nisbatan bir necha million marta katt bo'lishi ko'rsatib berilgan.

II BOB. ELEKTROMAGNIT MAYDONDAGI RELYATIVISTIK ZARYADNING HARAKAT TENGLAMASI

2.1. Elektromagnit maydondagi zaryadning harakat tenglamasi.

Maydondagi zaryad maydon tomonidan ta'sirga uchraydi va shu bilan o'zi ham maydonga ta'sir qilib uni o'zgartiradi. Agar zaryad q katta bo'lmasa aks ta'sirni hisobga olmasa bo'ladi. Bizga ma'lum har qanday sistemaning harakat tenglamasini quyidagi ko'rinishga yozish mumkin:

$$\frac{d}{dt} \frac{\partial L}{\partial \vec{v}} = \frac{\partial L}{\partial \vec{r}} \quad (2.1.1)$$

Bizda

$$L = -mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} - \frac{q}{c} (\varphi c - \vec{A} \vec{v}) \equiv -mc^2 \sqrt{1 - \frac{v^2}{c^2}} - q\varphi + \frac{q}{c} \vec{A} \vec{v} \quad (2.1.2)$$

Bu yyerda Lagranj funksiyasidan vektor yo'nalishlarida olingan hosila quyidagicha:

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial L}{\partial \vec{v}} &= \frac{\partial L}{\partial v_x} \vec{i} + \frac{\partial L}{\partial v_y} \vec{j} + \frac{\partial L}{\partial v_z} \vec{k} = \vec{P} \\ \frac{\partial L}{\partial \vec{r}} &= \frac{\partial L}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial L}{\partial y} \vec{j} + \frac{\partial L}{\partial z} \vec{k} = \vec{F} \end{aligned} \right\} \vec{F} = \frac{d\vec{P}}{dt} \quad (2.1.3)$$

Logranj funksiyasi ifodasidan ko'rinadiki elektromagnit maydon zaryadga ko'rsatayotgan ta'sir uning zaryadi q , uning tezlik vektori, elektr maydon skalyar potentsiali hamda $\vec{A}$ vektor potentsialiga bog'liq. Endi Logranj funksiyasidan foydalanib harakat tenglamasini keltirib chiqaramiz.

$$\frac{\partial L}{\partial \vec{r}} = \text{grad } (-q\varphi) + \text{grad } \left(\frac{q}{c} \vec{A} \vec{v} \right);$$

$$\text{grad } (-q\varphi) = q\vec{E}_0$$

$$\frac{q}{c} \text{grad } (A_x V_x + A_y V_y + A_z V_z)$$

$$\text{grad } \varphi = \frac{\partial \varphi}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial \varphi}{\partial y} \vec{j} + \frac{\partial \varphi}{\partial z} \vec{k}$$

$$\frac{\partial}{\partial x} (A_x V_x + A_y V_y + A_z V_z) = V_x \frac{\partial A_x}{\partial x} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial x} + V_z \frac{\partial A_z}{\partial x}$$

$$\frac{\partial}{\partial y} (\vec{A} \vec{V}) = V_x \frac{\partial A_x}{\partial y} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial y} + V_z \frac{\partial A_z}{\partial y}$$

$$\frac{\partial}{\partial z} (\vec{A} \vec{V}) = V_x \frac{\partial A_x}{\partial z} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial z} + V_z \frac{\partial A_z}{\partial z}$$

Gradiyentini hisoblaymiz

$$\begin{aligned} \frac{\partial}{\partial r} (\vec{A} \vec{V}) &= \text{grad} (\vec{A} \vec{V}) = V_x \frac{\partial A_x}{\partial x} \vec{i} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial x} \vec{i} + V_z \frac{\partial A_z}{\partial x} \vec{i} + V_x \frac{\partial A_x}{\partial y} \vec{j} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial y} \vec{j} + \\ &+ V_z \frac{\partial A_z}{\partial y} \vec{j} + V_x \frac{\partial A_x}{\partial z} \vec{k} + V_y \frac{\partial A_y}{\partial z} \vec{k} + V_z \frac{\partial A_z}{\partial z} \vec{k} = V_x \frac{\partial}{\partial x} A_x \vec{i} + V_y \frac{\partial}{\partial y} A_y \vec{j} + V_z \frac{\partial}{\partial z} A_z \vec{k} = \\ &= (\vec{V} \cdot \vec{\nabla}) \vec{A} \end{aligned}$$

Endi topilgan hosilalarni o'z o'rniga qo'yamiz.

$$\frac{q}{c} \{ (\vec{V} \vec{\nabla}) \vec{A} \};$$

$$\vec{V} \vec{\nabla} = V_x \frac{\partial}{\partial x} + V_y \frac{\partial}{\partial y} + V_z \frac{\partial}{\partial z}$$

Demak, lagranj funksiyasidan olingan gradiyentni quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{\partial L}{\partial r} = \text{grad} L = \frac{q}{c} (\vec{V} \vec{\nabla}) \vec{A} + q \vec{E} \quad (2.1.4)$$

1-hadni o'zgartiramiz.

$$[\vec{A} [\vec{B} \vec{C}]] = \vec{B} (\vec{A} \vec{C}) - \vec{C} (\vec{A} \vec{B})$$

$$[\vec{v} [\vec{\nabla} \vec{A}]] = \vec{\nabla} (\vec{v} \vec{A}) - \vec{A} (\vec{v} \vec{\nabla})$$

$$(\vec{v} \vec{\nabla}) \vec{A} = \vec{\nabla} (\vec{v} \vec{A}) - [\vec{v} [\vec{\nabla} \vec{A}]] = \vec{\nabla} (\vec{v} \vec{A}) - [\vec{v}, \text{rot } \vec{A}]$$

Demak, Logranj tenglamasining o'ng tomoni, ya'ni elektromagnit maydonda harakatlanayotgan zarrachaga ta'sir etayotgan kuchni quyidagicha yozish mumkin.

$$\vec{F} = q \vec{E} + \frac{q}{c} \{ \vec{\nabla} (\vec{v} \vec{A}) - [\vec{v}, \text{rot } \vec{A}] \} = q \vec{E}_0 + \frac{q}{c} \vec{\nabla} (\vec{v} \vec{A}) - \frac{q}{c} [\vec{v}, \text{rot } \vec{A}];$$

Oxirgi had zarrachaga ta'sir qiluvchi Lorens kuchi

$$F_l = \frac{q}{c} [\vec{v} \vec{H}]$$

$$\vec{H} = \text{rot } \vec{A}$$

$$\vec{E}_0 = -\text{grad } \varphi$$

Elektr maydon kuchlanganligi doimiy elektromagnit maydon uchun uning skalyar potensialidan olingan gradiyentga teng.

Endi Logranj tenglamasining chap tomonini hisoblaymiz. Buning uchun elektromagnit maydondagi zaryadning impulsini topamiz.

$$\frac{\partial L}{\partial \vec{v}} = \frac{\partial L_e}{\partial \vec{v}} + \frac{\partial L_{ut}}{\partial \vec{v}} = \vec{P}_e + \text{grad}_{\vec{v}} \left[\frac{q}{c} \vec{A} \vec{v} - q \varphi \right] = \vec{P}_e + \text{grad}_{\vec{v}} \left(\frac{q}{c} \vec{A} \vec{v} \right)$$

$$\frac{\partial}{\partial \vec{v}} (A_x v_x + A_y v_y + A_z v_z) = \vec{A}$$

bo'lgani uchun

$$\frac{\partial L}{\partial \vec{v}} = \vec{P}_e + \frac{q}{c} \vec{A} \rightarrow \vec{P}_{em}$$

Elektromagnit maydondagi zaryadning impulsi uning odatdagi impulsidan $\frac{q}{c} \vec{A}$ ga farq qilar ekan. Endi zaryadning harakat tezlanishini $\frac{d}{dt} \vec{P}_{em}$ olish qiyin emas.

$$\frac{d}{dt} \vec{P}_{em} = \frac{d}{dt} \left(\vec{P}_e + \frac{q}{c} \vec{A} \right) = \frac{d\vec{P}_e}{dt} + \frac{q}{c} \frac{d\vec{A}}{dt}$$

$$\begin{aligned} \frac{d\vec{A}}{dt} &= \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} \frac{dx}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} \frac{dy}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} \frac{dz}{dt} + \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} \frac{dt}{dt} = \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + V_x \frac{\partial \vec{A}}{\partial x} + V_y \frac{\partial \vec{A}}{\partial y} + V_z \frac{\partial \vec{A}}{\partial z} = \\ &= \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + (\vec{V}, \vec{\nabla}) \vec{A} = \frac{\partial \vec{A}}{\partial t} + \vec{\nabla} (\vec{V}, \vec{A}) - [\vec{V}, \text{rot } \vec{A}] \end{aligned}$$

